

HIKMATLARNING DINIY-MA'RIFIY ASOSLARI

Abdinazarov Mansur Abdurahmon o'g'li,*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Toshkent amaliy fanlar universiteti, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy ijodi asosida hikmatnavislik an'anasining shakllanishi va uning XII–XIX asrlarda davom etgan taraqqiyoti ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif Devoni hikmat asarining turkiy tasavvuf adabiyotidagi o'rni, uning g'oyaviy manbalari hamda badiiy-estetik xususiyatlarini yoritadi. Tadqiqotda hikmat janrining shakllanishida Qur'oni karim va Hadis ta'limotlarining ta'siri, shuningdek, qadimgi turkiy og'zaki ijod an'analari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Maqolada tasavvuf ta'limotining Turkiston hududida rivojlanish jarayoni, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoni kabi mutasavviflar faoliyati hamda hikmatlarning xalq orasida tarqalishida ijroiylilik va sinkretizm xususiyatlari muhim omil bo'lgani asoslab beriladi. Shuningdek, hikmat janrining barmoq vazni, to'rtlik shakli va xalqona ifoda uslubi orqali turkiy xalqlarning ma'naviy-ma'rifiy tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ahmad Yassaviy, Devoni hikmat, hikmatnavislik an'anasi, tasavvuf adabiyoti, turkiy mumtoz adabiyot, hikmat janri, barmoq vazni, irfoniy g'oyalar, Qur'oni karim, Hadis.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ формирования традиции мудрых изречений на основе трудов Ахмада Яссави и её развития в XII–XIX веках. Автор освещает место мудрых изречений в тюркской мистической литературе, их идеологические источники, а также художественно-эстетические особенности. В исследовании анализируется влияние учений Священного Корана и хадисов на формирование жанра мудрых изречений, а также его связь с традициями древнетюркского устного творчества. В статье обосновывается развитие учения суфизма на территории Туркестана, деятельность таких мистиков, как Юсуф Хамадоний и Абдухалик Гидждувани, а также тот факт, что особенности исполнения и синкретизма были важными факторами распространения мудрости среди народа. Также освещается влияние жанра мудрых изречений на духовное и просветительское мышление тюркских народов посредством аппликатуры, четверостишной формы и народного стиля выражения.

Ключевые слова: Ахмад Яссави, Девани Хикмат, традиция мудрых изречений, суфийская литература, турецкая классическая литература, жанр мудрости, каллиграфия, мистические идеи, Священный Коран, хадисы.

Abstract. This article scientifically analyzes the formation of the tradition of wisdom writing based on the work of Ahmad Yassavi and its development in the 12th–19th centuries. The author sheds light on the place of the work of wisdom in Turkish mystical literature, its ideological sources, and artistic and aesthetic characteristics. The study analyzes the influence of the teachings of the Holy Quran and Hadith on the formation of the wisdom genre, as well as its connection with the traditions of ancient Turkic oral creativity. The article substantiates the development of the doctrine of Sufism in the territory of Turkestan, the activities of such mystics as Yusuf Hamadoni and Abdukhalik Gijduvani, and the fact that the characteristics of performance and syncretism were important factors in the spread of wisdom among the people. It also highlights the influence of the wisdom genre on the spiritual and enlightening thinking of the Turkic peoples through fingering, quatrain form, and folk style of expression.

Keywords: Ahmad Yassavi, Devani Hikmat, tradition of wisdom writing, Sufi literature, Turkish classical literature, wisdom genre, fingering, mystical ideas, Holy Quran, Hadith.

Kirish. Ahmad Yassaviy ijodi ta'sirida hikmatnavislik an'anasining shakllanishi va bu an'ananing XII asrdan XIX asrgacha tadrijiy davom etganligi masalasi hikmatnavis

shoirlar ijodi asosida o'rganilgan tadqiqotlarda ilmiy jihatdan asoslab berilgan[10].Xoja Ahmad Yassaviy "hikmat" deb nomlangan she'rlari orqali turkiy tasavvuf adabiyotiga asos soldi. Keyinchalik ushbu she'rlar "Devoni hikmat" nomi bilan jamlanib, yozma adabiyot mulkiga aylantirildi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "Islomiyat ruhi ko'hna xalq she'riyati unsurlari — milliy she'r shakli va vazni vositasida ifodalangan ilk badiiy asar bo'lganligi sababli 'Devoni hikmat'ni turkiy tasavvuf adabiyotining eng qadimgi va muhim obidasi sifatida baholash lozim"[7].Mazkur asar nafaqat diniy-irfoniy mazmuni, balki badiiy-estetik xususiyatlari bilan ham o'zbek mumtoz adabiyotining shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Islom dini ta'limoti Arabiston o'lkasida vujudga kelgan bo'lsa-da, uning ilmiy tizim sifatida shakllanishi va mukammal tasniflanishi jarayoni Turkiston hududida yuksak bosqichga ko'tarildi. Imom al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu al-Mu'iyin Nasafiy singari allomalar hadis, kalom va fiqh ilmlarining mustahkam ilmiy poydevorini yaratdilar[19]. Qur'oni karim g'oyalarining Turkiston o'lkasida keng yoyilishida va xalq ongiga singishida tasavvuf namoyandalarining xizmati beqiyosdir. Xususan, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy hamda Xoja Ahmad Yassaviy faoliyati orqali islomiy ma'rifat xalqona shaklda targ'ib qilindi. Tasavvuf ta'limoti insonni halollik, poklik, mehnatsevarlik, ma'naviy kamolot va ijtimoiy adolatga chorlovchi axloqiy-ma'rifiy tizim sifatida shakllandi[15]. Inson, olam va koinot o'rtasidagi munosabatlarni izohlashda tasavvuf ta'limoti markaziy o'rin egallaydi. O'zbek mumtoz adabiyoti ilk davrlaridanoq tasavvuf g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi. VIII–IX asrlarda Iroq va Shom hududlarida yuzaga kelgan tasavvufiy qarashlar X–XI asrlarda Xuroson va Movarounnahrda keng yoyildi. Jumladan, Robiya Adaviyaning ilohiy ishq haqidagi qarashlari, Zunnun Misriyning Haq ma'rifatiga oid ta'limoti, Abubakr Shibliyning vahdati vujudga doir fikrlari keyingi tasavvuf maktablariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu g'oyalar Eron, Xuroson va Movarounnahr hududlarida Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Abulhasan Xaraqoniy kabi mutasavviflar tomonidan yanada rivojlantirildi. pok axloq masalasini Abulhasan Xaraqoniy (967–1049), ilohiy ishq g'oyasini Bobo Ko'hiy (949–1051) hamda Xoja Abdulloh Ansoriy (1006–1088) ta'limotlarida markaziy o'rin egallagan. Imom G'azzoliy (1058–1111) va Xoja Yusuf Hamadoniy (vaf. 1140) esa shariat va tariqat uyg'unligi asosida komil insonni tarbiyalash g'oyasini xalq o'rtasida keng yoydilar[15].

Adabiyotlar tahlili. Tasavvuf tariqatlari va ularning tarixiy taraqqiyoti masalasiga ingliz sharqshunosi Spencer Trimmingham alohida e'tibor qaratadi. Olim tasavvuf tariqatlarining shakllanish va tarqalish jarayonini uch asosiy mintaqaga ajratib talqin qiladi: birinchisi — Iroq hududi, ikkinchisi — Misr va Mag'rib o'lkalari, uchinchisi esa — Eron, turkiy davlatlar va Hindiston mintaqasi[18]. Ushbu tasnif tasavvufning geografik va madaniy jihatdan rang-barang taraqqiy etganini ko'rsatadi. IX–X asrlar tasavvuf tarixida xonaqohlarning paydo bo'lishi hamda tariqat rusumlarining shakllanish davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon XI–XII asrlarda mustaqil tasavvuf

maktablarining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Misr, Bag‘dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz va Balx kabi shaharlar tasavvuf va tariqat markazlari sifatida nafaqat diniy, balki ijtimoiy hamda ma‘rifiy-madaniy hayotda ham muhim rol o‘ynadi[13]. XI asrdan XII asr o‘rtalarigacha bo‘lgan turkiy-o‘zbek adabiyotida ham tasavvuf g‘oyalari izchil talqin etila boshladi. Jumladan, XI asr adabiyotining buyuk namoyandasi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida tasavvuf ta‘limotidagi komil insonni tarbiyalash bosh g‘oya sifatida ilgari surilgan bo‘lsa, XII asr adabiyotining yirik vakili Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida komillikning muhim sharti bo‘lgan ilm egallash masalasi alohida targ‘ib etiladi. “Qutadg‘u bilig” va “Hibat ul-haqoyiq”da ilgari surilgan komil inson va ilm haqidagi tasavvufiy qarashlar davr ijtimoiy-ma‘naviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllangan edi[7]. Xoja Ahmad Yassaviyning shaxsi va hayot yo‘li haqidagi tarixiy hujjatlar nisbatan kam saqlanib qolgan bo‘lsa-da, manoqib xarakteridagi manbalar keng tarqalgan. Jumladan, milodiy 1146 yilda Donishmand Xojaning o‘g‘li Mavlono Safiyuddin O‘rung Qo‘yloqiy tomonidan arab tilidan turkiy tilga tarjima qilingan “Nasabnoma”, XII asrga mansub bo‘lib, So‘fiy Muhammad Donishmand nomi bilan bog‘lanadigan “Mir‘ot ul-qulub”, shuningdek, XIII asr oxiri yoki XIV asr boshlarida Imom Sig‘noqiy tomonidan yozilgan “Risola dar tarjimai Ahmad Yassaviy” asarlari shular jumlasidandir. Ushbu manbalar Yassaviyning tariqatdagi o‘rni va ma‘naviy merosini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi[5].

Muhoka va natija. Ahmad Yassaviy “Hikmat” deb nomlangan she‘rlari bilan turkiy, jumladan, o‘zbek tasavvuf adabiyotiga mustahkam asos soldi. Ushbu she‘rlar keyinchalik “Devoni hikmat” nomi ostida jamlanib, yozma adabiyot mulkiga aylantirildi. Tadqiqotchilar e‘tirof etganidek, islomiyat ruhi ko‘hna xalq she‘riyati unsurlari — milliy she‘r shakli va vazni vositasida ifodalangan ilk badiiy asar bo‘lgani bois “Devoni hikmat”ni turkiy tasavvuf adabiyotining eng qadimgi va muhim obidalaridan biri sifatida baholash lozim[10]. Ahmad Yassaviy hikmatlarida muallif nafaqat mazmun, balki ularni kimlarga qaratib aytilganini ham bevosita ta‘kidlaydi. Jumladan, shoir: “Meni hikmatlarim oshiqqa ayting, Dili oyinaday sodiqqa ayting” — deya hikmatlarning, avvalo, qalbi pok, iymoni sobit, ma‘naviy yetuk insonlarga mo‘ljallanganini ifodalaydi. Bu hol Yassaviy hikmatlarining tarbiyaviy va irfoniy yo‘nalishini yaqqol namoyon etadi. “Hikmat” so‘zining lug‘aviy va tasavvufiy ma‘nosiga e‘tibor qaratilganda, mazkur atama arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, “bilimdonlik”, “donishmandlik”, “chuqur ma‘noli so‘z”, “haqiqatni anglash” kabi ma‘nolarni anglatadi. Hikmat tushunchasi Qur‘oni karimda turli o‘rinlarda qo‘llanib, Allohning bandalariga ato etgan ilmi, aql va idrok ne‘mati, shuningdek, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi ma‘rifat sifatida talqin etiladi[12]. Ahmad Yassaviy hikmatlarining asosiy manbai, shubhasiz, Qur‘oni karim oyatlari hamda Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hadislaridir. Mutasavvif shoir ushbu ilohiy manbalarni turkiy xalqlarga tushunarli va ta‘sirchan shaklda yetkazish maqsadida hikmatlarni she‘riy tizimda, xalqona barmoq vaznida bayon qildi. Bu esa hikmatlarning xalq orasida keng

tarqalishiga va tez singib ketishiga xizmat qildi[7]. Qur'oni karimda Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “U savodsizlarga o‘zlarining ichidan oyatlarini o‘qib beradigan, ularni poklaydigan hamda ularga Kitob va hikmatni o‘rgatadigan Rasulni yuborgan Zotdir. Holbuki, ular bundan ilgari ochiq-oydin zalolatda edilar” (Juma surasi, 2-oyat). Mazkur oyatda Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning vazifasi — oyatlarni tilovat qilish, insonlarni ma’naviy poklash va ularga Kitob hamda hikmatni o‘rgatish ekani bayon etiladi. Ma’lumki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam savod chiqarmagan bo‘lsalar-da, ilohiy vahiy orqali insoniyatni jaholatdan ma’rifatga yetakladilar. Ahmad Yassaviy ana shu Qur’oniy hikmat va payg‘ambarlik missiyasini o‘z hikmatlari orqali xalq ongiga singdirishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan edi[15]. Muhammad sollallohu alayhi vasallam qirq yoshlarida vahiy orqali islom dinini qabul qilib, butun insoniyat, jumladan, barcha musulmonlar uchun oxirgi payg‘ambar sifatida tan olindilar. U zot hayotlari davomida musulmonlarga ustozlik qilib, ilohiy yo‘lni amalda ko‘rsatdilar hamda Allohning kitobiga qanday ergashish lozimligini o‘z hayotlari bilan namoyon etdilar. Vahiyning Allohning kalomi orqali nozil bo‘lgani Qur’oni karim oyatlarida ochiq bayon etiladi. Shu bois “hikmat” tushunchasining mazmuni ham bevosita ilohiy manbaga borib taqaladi. Mazkur oyatlar mazmunidan anglashiladiki, hikmat Alloh taolo tomonidan O‘z Rasuli qalbiga ato etilgan ilohiy ne‘mat bo‘lib, uning savodsiz (ummiy) jamiyatdan yetishib chiqishi Alloh qudratining yorqin dalilidir. Demak, mutlaq va eng oliy hikmat egasi Alloh taoloning O‘zidir, undan keyin esa bu hikmat Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam orqali sahobalar, tobe‘inlar va tabaqa-tobe‘inlar vositasida ummatga yetib kelganini ko‘ramiz. Ana shu silsila orqali hikmat tushunchasi islom tafakkurida mustahkam o‘rin egallagan. Xoja Ahmad Yassaviyning to‘rtlik shaklida aytilgan, irshod va targ‘ibga xizmat qiluvchi she‘riy merosini “hikmat” deb nomlashi ham bejiz emas. Bu atama orqali mutasavvif shoir o‘z asarlarining asosiy manbai Qur’oni karim va hadis ekanini bilvosita ta’kidlaydi. Qur’oni karimda Payg‘ambarimizning asosiy vazifalari sifatida oyatlarni tilovat qilish, insonlarni ma’naviy poklash (tazkiya), Kitobni o‘rgatish hamda hikmatni ta’lim berish vazifalari ko‘rsatiladi[12]. Mazkur oyat tafsirlarida “hikmat” tushunchasi Qur’onni to‘g‘ri anglash va unga amal qilish ma’nosida izohlanadi. Jumladan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ta’biri bilan aytganda, hikmat — bu Qur’oni karimni to‘g‘ri tushunish va uning amaliy hayotdagi tatbiqidir[15]. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari ham aynan shu ma’noda Qur’oniy g‘oyalarning badiiy va xalqona talqinidan iborat bo‘lib, ular turkiy xalqlarga sodda, tushunarli va ta’sirchan shaklda yetkazilgan. Mutasavvif shoir hikmatlarni barmoq vaznida, xalq og‘zaki ijodiga yaqin she‘riy shaklda bayon qilgani ham uning targ‘ibotdagi maqsadiga to‘la mos keladi. Xoja Ahmad Yassaviy targ‘ibot vositasi sifatida she‘riyatni tanlar ekan, arab va fors tasavvuf adabiyotiga ko‘r-ko‘rona taqlid qilmadi, balki “hikmat” deb atalgan yangi she‘riy janrga asos soldi. Ushbu janr qadimgi turkiy she‘riyatning shakl, vazn va qofiya xususiyatlariga tayangan holda yuzaga kelib, ijro va yod olishga qulayligi bilan ham

ajralib turadi[10]. «Devoni hikmat» tarkibidagi ayrim hikmatlar har bir misrasi o'n to'rt bo'g'indan iborat bo'lgan bayt shaklida ifodalangani sababli ichki qofiyali ko'rinishga ega. Bunday holat, asosan, hajman kichik bo'lgan to'rtliklarning ayrim qo'lyozma manbalarda kotiblar tomonidan bayt shaklida ko'chirilgani bilan izohlanadi. Bu esa matnning tashqi shakliga ta'sir qilgan bo'lsa-da, uning mazmuniy va irfoniy mohiyatini o'zgartirmagan[10]. Masalan, quyidagi hikmat parchasi barmoq vaznining yettilik turkumida (4+3) bitilgan bo'lib, qadimgi xalq qo'shiqlariga xos ohang va tuzilmani namoyon etadi:

Munda o'zin bilgonlar,
Haqqa qulluq qilgonlar,
Haq yo'liga kirgonlar,
Yoruq yuzli bo'lg'usi.

Ushbu misralarning har biri 7 bo'g'indan tashkil topgan bo'lib, xalq og'zaki ijodiga yaqinligi, yod olish va ijro etishdagi qulayligi bilan ajralib turadi. Bu hol Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining keng omma orasida tez tarqalishiga xizmat qilgan muhim omillardan biridir[6]. Tasavvufiy ta'limot nuqtayi nazaridan hikmat faqat nazariy bilim emas, balki ilmning amalda namoyon bo'lishidir. Ya'ni hikmat aytuvchi shaxs, avvalo, o'zi aytayotgan haqiqatlarga amal qilgan bo'lishi lozim. Bu qarash Qur'oni karim oyatlarida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Baqara surasining 269-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "Alloh hikmatni O'zi istagan kimsaga beradi. Kinga hikmat berilgan bo'lsa, albatta unga ko'p yaxshilik berilgan bo'lur. Buni faqat aql egalari eslaydilar". Mazkur oyatda "hikmat" tushunchasi inson uchun buyuk ilohiy ne'mat sifatida talqin qilinadi. Tafsir manbalarida bu oyat mazmuni sharhlanar ekan, hikmat amal va iymonni to'g'ri yo'lga boshlovchi vosita ekani ta'kidlanadi. Xususan, Shayx Abdulaziz Mansur tafsirlarida hikmatning, avvalo, payg'ambarlarga ato etilgan ilohiy ne'mat ekani, undan esa ilm va amal uyg'unligiga erishgan bandalar nasiba olishi qayd etiladi[14]. Demak, hikmat sohibi bo'lish — Haq bilan botilni ajrata oladigan, so'zni o'z o'rnida aytadigan va eng muhimi, o'z amali bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan komil inson bo'lishni anglatadi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida ana shunday komillik mezonlari she'riy, sodda va xalqona shaklda ifodalangan. Hikmatlarning zikr majlislarida shayx yoki hofiz tomonidan mungli, musiqiy ohangda ijro etilishi ham qadimgi turkiy she'riyat an'alariga borib taqaladi. Qadimgi turkiy xalqlarning diniy va madaniy marosimlarida she'r, marsiya, qo'shiq va dostonlar "shomon", "o'zan", "yirchi", "baxshi", "oqin" kabi nomlar bilan tanilgan iste'dodli ijrochilar tomonidan kuylanib kelingan. Bu jihat Yassaviy hikmatlarining og'zaki va yozma an'ana tutashgan nuqtada yuzaga kelganini ko'rsatadi[4]. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini targ'ib qiladigan marosimlarda ijro etilgan asarlarda she'r, musiqa va raqsning mushtarakligi asosida yuzaga kelgan sinkretizm hodisasi ustuvorligini ko'rsatadi. Qadimgi turkiy she'riyatning ijroiylilik xususiyati, ayniqsa, janrlarning mungli — qayg'uli ohangda ijro etilishi bilan bog'liq bo'lgan. Masalan,

marsiya (“yig‘i-yo‘qlov”) “yig‘ichi”, yir (“jir”) “yirov”, ko‘glar esa “oqin”lar tomonidan ijro etilgan. Bu hol qadimgi turkiy she‘riyat janrlarining musiqa va kuydan uzviy tarzda tashkil topganligini ko‘rsatadi[4]. Shuning uchun mumtoz manbalarda “yir” atamasi ko‘pincha “kuy”, ba‘zan “she‘r” ma‘nosida qo‘llangan. “Yir — jir” qadimgi turkiy adabiyotdagi janrlardan biri bo‘lib, ularning xususiyati she‘r va kuyning bir-biriga uzviy bog‘langan ijrosida namoyon bo‘ladi[10]. Ana shunday tarixiy va madaniy kontekstdan kelib chiqib, Xoja Ahmad Yassaviy o‘zbek mumtoz adabiyotida hikmat deb atalgan yangi she‘riy janrga asos soldi. Hikmatlarning genezisi qadimgi turkiy she‘riyatning quyidagi xususiyatlariga tayangan:

She‘r vazni va tuzilishi. Hikmatlarda barmoq she‘r tizimining o‘n ikkilik turkumi (4+4+4) eng faol qo‘llanilgan bo‘lib, asosan to‘rtliklar shaklida ifodalangan[6].

Ijroiylilik xususiyati. Qadimgi turkiy adabiyotga oid doston, qo‘shiq, yir va ko‘g singari janrlar “o‘zan”, “yirchi”, “baxshi”, “oqin”lar tomonidan ijro etilgan. Hikmatlar ham xalq orasida “hofiz”, “hofizbobo” deb atalgan, she‘riyat va musiqadan yaxshi xabardor bo‘lgan qobiliyatli insonlar tomonidan aytilgan[7].

Sinkretik xususiyati. Yir, ko‘g va yig‘i-yo‘qlovlar ijrosi so‘z va musiqaning mushtarakligida yuzaga kelgan. Hikmatlar ham mungli musiqiy ohang bilan, ma‘lum she‘riy vaznga solib, ijro etilgan[11]. Ushbu xususiyatlar hikmat janrining xalq tomonidan tez qabul qilinishiga va uning tarbiyaviy, irfoniy ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shu tariqa, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini nafaqat ilmiy, balki ijroiylilik va ma‘naviy jihatdan ham mustahkam asosga ega bo‘lgan asar sifatida shakllantirgan. Alloh taolo Luqmon surasining 12-oyatida shunday marhamat qiladi: “Albatta, Biz Luqmonga hikmat berdik. Allohga shukur qil; kim shukur qilsa faqat o‘zi uchun shukur qilur. Kim noshukurlik qilsa, albatta, Alloh behojat va hamd egasidir”[14]. Luqmon a.s. Bouron avlodidan bo‘lib, ayrim rivoyatlarga ko‘ra, u Ayub a.s. ning xolasining yoki singlisining o‘g‘li sifatida keltiriladi. Rivoyatlarda uning ming yil umr ko‘rib, Davud a.s. davrigacha yashab, undan ilm olgani qayd etilgan[3]. Luqmonning hunari haqida turli rivoyatlar mavjud: ba‘zilari tikuvchilik yoki duradgorlik, boshqalari esa podachilik ekanini aytadi. Ikrima Suddiy va Sha‘biy r.a.lar esa Luqmonning payg‘ambar bo‘lganini iddao qilgan, qolgan ulamolar esa uni hakim sifatida tan olgan[3]. “Hakim” atamasi so‘z va ishda o‘ta aniqlik va adolatli tafakkurga ega bo‘lgan shaxslar uchun ishlatilgan. Shu ma‘noda, Luqmon a.s. mingta payg‘ambarga ustozlik qilgan deya rivoyat qilinadi[9]. Ibn Abbas r.a. so‘zlariga ko‘ra, Luqmon a.s. habashiy qul bo‘lgan. Rivoyatlardan ma‘lum bo‘lishicha, u insonlarga eng mazali va eng shirin go‘sh tuz yurak va til orqali ta‘mini bilish mumkinligini aytgan, bu esa uning hikmatli tafakkurini namoyon qiladi[16]. Shu rivoyatlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, hikmat ham inson darajasiga qarab bo‘linadi va Alloh tomonidan beriladi. Hikmatni olgan shaxslar boshqalarga kitoblarni o‘qib, ustozlik qilish orqali yetkazadi va eng muhimi, o‘zlari hikmatga amal qiladigan bo‘lishi shart. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham xuddi shu tamoyil ko‘zga tashlanadi: ularning asosi Qur‘on va sunnatdan olingan bo‘lib,

o'quvchi va tinglovchilarni amal qilishga targ'ib qiladi[8]. Hikmatlarni yetkazish usuli borasida Nahl surasi, 125-oyatida shunday marhamat qilinadi: "Robingizning yo'liga hikmat va chiroyli nasihat bilan da'vat eting. Ular bilan eng go'zal uslubda munozara qiling. Albatta, Parvardigoringizning o'zi Uning yo'lidan chalg'igan kimsalarni yaxshi biluvchi va hidoyat topganlarni ham U biluvchiroqdir"[1].

Oyat tafsiri bo'yicha:

"Rabbingning yo'liga da'vat eting" — odamlarni Allohning dini, ya'ni Islomga chaqirishni bildiradi; da'vat majburiylik bilan emas, tushuntirish va ilm bilan amalga oshiriladi.

"Hikmat bilan" — ilm va tafakkur bilan, vaziyatga mos, yumshoqlik va aql bilan so'zlash; tinglovchining darajasiga mos ifoda uslubini qo'llash.

"Chiroyli nasihat bilan" — muloyim so'z, qo'rqitmasdan, qalbga yetadigan maslahat berish; natija va hidoyat Allohning ixtiyorida.

"Ular bilan eng go'zal uslubda bahslash" — bahs hurmat va sokin ohangda, g'alaba yoki kamsitish uchun emas, haqiqatni tushuntirish maqsadida bo'lishi kerak[14]. Ana shu oyatlar asosida xulosa qilish mumkinki, hikmatni aytish va yetkazishning o'ziga xos odob va arkonlari mavjud. Hikmatning mohiyati — nafaqat ilmni ifodalash, balki uni amal bilan mustahkamlash va muloyim, aql bilan yetkazishdir. Shu nuqtai nazardan, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham shunday metodologiya, ya'ni sunnat va Qur'ondan olingan ma'naviy-amaliy yo'l ko'rsatiladi. Islom dini tinchlikni va insonlarga zarar yetkazadigan har qanday ishni qoralaydi. Shu nuqtai nazardan, hikmat aytish jarayoni ham Allohning qonunlari va axloqiy mezonlari doirasida amalga oshadi[2]. Qalbida zarracha imoni bor shaxs Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini eshitganda o'zini tergap, ma'naviy tekshiruvdan o'tkazishi tabiiy jarayon hisoblanadi[1]. Xoja Ahmad Yassaviy hikmat aytishda o'zi yashagan qabila va urug'larning madaniyati, til va tushunish darajasini inobatga olgan holda, hikmatlarni to'rtliklardan iborat shaklda aytgan[8]. Shu tarzda hikmatlar oddiy, sodda va eslab qolishga oson bo'lgan shaklda ijro etilgan. Ularni eshitgan odamlar ba'zan yig'lab ham yuborardi; bu ayniqsa kechasi, dasht va qirloqda, ovoz chiqarib aytilganda yanada samara berardi. Bu esa hikmatlarni nafaqat o'qish, balki maqbul va ta'sirchan da'vat vositasi sifatida qabul qilinishini ta'minlaydi[8].

Xulosa. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi turkiy xalqlar ma'naviy-ma'rifiy tafakkuri tarixida alohida o'rin tutadi. Uning "hikmat" nomi bilan mashhur bo'lgan she'riy asarlari nafaqat diniy-e'tiqodiy qarashlarni, balki axloqiy va ma'rifiy tamoyillarni xalqona, sodda va ta'sirchan shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi[17]. Shu she'rlar keyinchalik "Devoni hikmat" nomi ostida jamlanib, turkiy yozma adabiyotning muhim manbalaridan biriga aylandi. "Devoni hikmat"ning g'oyaviy va badiiy mohiyati avvalo Islom ta'limotining asosiy manbalari — Qur'oni karim va hadislar bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. — Turkiston: Movarounnahr, 2001. — 12-14-betlar
2. Al-Islam wa al-Silm — Tinchlik va zarar qilmaslik tamoyillari, 45-bet.
3. Al-Qurtubi, M. Tafsir al-Qurtubi. — Cairo: Dar al-Kutub, 2005. — 3/234-betlar.
4. Bregel, Y. Central Asia in the Medieval Period. — Leiden: Brill, 2003. — 203–207-betlar.
5. DeWeese, D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. — Pennsylvania: Penn State Press, 1994. — 143–150-betlar.
6. Ergin, M. Türk Halk Şiiri ve Nazım Şekilleri. — Istanbul: Boğaziçi Yay., 2004. — 56–60-betlar.
7. Erkinov, A. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan, 2008. — 67–75-betlar.
8. Ibid., 20-22-bet. — Hikmatlarning eshitish va eslab qolish samaradorligi.
9. Ibn Kathir, I. Tafsir al-Qur'an al-Azim. — Beirut: Dar al-Fikr, 2004. — 3/321-betlar.
10. Köprülü, M. Fuad. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. — Ankara: Diyanet Yay., 1991. — 78–85-betlar.
11. Mirzaev, I. O'zbekiston tasavvuf adabiyoti. — Toshkent: Movarounnahr, 2015. — 45–49-betlar.
12. Qur'oni karim. Juma surasi, 2-oyat; qarang: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-jild. — Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. — 312–314-betlar.
13. Schimmel, A. Mystical Dimensions of Islam. — Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975. — 86–92-betlar.
14. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. — Toshkent: Movarounnahr, 2018. — Baqara surasi, 269-oyat tafsiri.
15. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf va axloq. — Toshkent: Hilol-Nashr, 2016. — 23–27-betlar.
16. Suyuti, J. Al-Itqan fi Ulum al-Qur'an. — Cairo: Al-Halabi, 1990. — 198–200-betlar.
17. Tasavvuf adabiyoti tarixi — Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va diniy-ma'rifiy ta'sir, 33-bet.
18. Trimmingham, J. S. The Sufi Orders in Islam. — Oxford: Oxford University Press, 1971. — 10–18-betlar.
19. Xayrullaev, M. Movarounnahrda ilm-fan taraqqiyoti. — Toshkent: O'zbekiston, 1994. — 56–60-betlar.

Ag'niyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934